Ta'limda liderlik bo'yicha OECD tadqiqotlari maktab rahbarining pedagoglar salohiyati, maktab muhiti va ta'lim natijalariga ta'sirini ta'kidlaydi hamda rahbarlik funksiyalarini qayta belgilash, kasbiy tayyorgarlikni rivojlantirish va tizimli qo'llab-quvvatlashni samarali maktab boshqaruvining muhim sharti sifatida ko'rsatadi ^[9].

E. Sheninger raqamli liderlikni kommunikatsiya, professional o'rganish, maktab brendi, raqamli muhit va innovatsion o'zgarishlarni birlashtiruvchi rahbarlik amaliyoti sifatida yoritadi ^[17].

I. Berkovich va T. Hassan tadqiqoti maktab direktorining raqamli instruksional liderligi pedagoglarning raqamli faoliyatga ichki motivatsiyasi hamda o'quv jarayoniga ta'sir qiluvchi tashkiliy sharoitlar bilan bog'liqligini ko'rsatadi ^[18].

Malaka oshirish jarayonini loyihalashda andragogik yondashuv muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. M. Knowles, E. Holton va R. Swanson kattalar ta'limida tinglovchining tajribasi, mustaqilligi, amaliy muammoni hal qilish ehtiyoji va darhol qo'llash mumkin bo'lgan natijaga yo'naltirilganlikni asosiy omillar sifatida ko'rsatadilar ^[10].

L. Desimone samarali kasbiy rivojlanishning mazmunga yo'naltirilganligi, faol o'rganish, izchillik, yetarli davomiylik va jamoaviy ishtirok kabi xususiyatlarini ajratadi ^[11].

T. Guskey esa kasbiy rivojlanish samaradorligini ishtirokchilarning reaksiyasi, o'zlashtirgan bilim va ko'nikmalari, tashkilotning qo'llab-quvvatlashi, yangi bilimlarning amalda qo'llanishi hamda yakuniy ta'lim natijalari bo'yicha bosqichma-bosqich baholashni taklif etadi ^[12].

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, media savodxonlik, raqamli kompetensiya, maktab liderligi va samarali malaka oshirish bo'yicha mustaqil nazariy modellar mavjud. Biroq ularni maktab direktorining media-boshqaruv faoliyatiga mos ravishda integratsiyalash, ya'ni faktcheking, maktab imiji, jamoatchilik bilan kommunikatsiya, krizis vaziyatlari, kiberxavfsizlik, shaxsiy ma'lumotlar va sun'iy intellektidan foydalanishni yagona boshqaruv sikliga birlashtirish masalasi maxsus ilmiy-metodik yechimni talab qiladi. Mazkur tadqiqot aynan ushbu bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot nazariy-metodologik va modellashtiruvchi xarakterga ega. Unda statistik tajriba natijalarini taqdim etish emas, balki maktab direktorlarining media kompetentligini rivojlantirish jarayonini tashkil etish uchun ilmiy asoslangan konstruktni ishlab chiqish maqsad qilingan. Shu sababli maqoladagi "natija" tushunchasi empirik samaradorlik ko'rsatkichi emas, balki nazariy sintez, funksional tahlil va pedagogik-boshqaruv modellashtirish orqali olingan mualliflik mexanizmini anglatadi.



Tadqiqotning metodologik asosini tizimli, kompetensiyaviy, andragogik, faoliyatga yo'naltirilgan va reflektiv yondashuvlar tashkil etdi. Tizimli yondashuv media kompetentlikni o'zaro bog'liq maqsad, mazmun, subyekt, resurs, texnologiya, monitoring va natija komponentlari orqali ko'rib chiqish imkonini berdi. Kompetensiyaviy yondashuv o'quv mazmunini ma'lumotlar yig'indisi sifatida emas, balki real boshqaruv vazifalarini bajarish qobiliyati bilan bog'lashga xizmat qildi. Andragogik yondashuv tinglovchilarning kasbiy tajribasi va amaliy ehtiyojlarini o'quv jarayonining asosiy resursiga aylantirdi. Faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv esa media materialni tekshirish, krizis bayonoti yozish, maktab media rejasini tuzish, rasmiy post yaratish va raqamli xavfsizlik auditini o'tkazish kabi mahsulдор topshiriqlarni markazga qo'ydi.

Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi:

- normativ-huquqiy hujjatlarni kontent tahlil qilish;
- UNESCO MIL, DigCompEdu, OECD maktab liderligi, andragogika va kasbiy rivojlanish modellarini qiyosiy tahlil qilish;
- tushunchalarni semantik aniqlashtirish;
- boshqaruv funksiyalarini pedagogik jarayon bosqichlari bilan moslashtirish;
- kompetensiyalar, modullar va baholash mezonlarini matritsali uyg'unlashtirish;
- tashkiliy-boshqaruv mexanizmini strukturaviy-funksional modellashtirish.

Mexanizmni ishlab chiqish uch bosqichda amalga oshirildi.

Birinchi bosqichda maktab direktorining media faoliyatiga oid boshqaruv vazifalari va xavflar aniqlandi.

Ikkinchi bosqichda ushbu vazifalar media savodxonlik, raqamli liderlik va kasbiy rivojlanish modellaridagi kompetensiyalar bilan qiyoslandi.

Uchinchi bosqichda diagnostika, maqsadni belgilash, mazmunni tashkil etish, amaliy faoliyat, monitoring va korrektsiyani birlashtiruvchi boshqaruv sikli ishlab chiqildi.


Nazariy konstruktning mantiqiy yaxlitligi komponentlar o'rtasidagi maqsad–vosita–natija aloqalarining mosligi, takrorlanmasligi va amaliy o'lchanish imkoniyati orqali tekshirildi.

Tadqiqotning cheklovi shundan iboratki, taklif etilayotgan mexanizmning statistik samaradorligi mazkur maqola doirasida tajriba-sinov yo'li bilan baholanmagan. Keyingi bosqichda kirish va yakuniy diagnostika, eksperimental va nazorat guruhlarini, ekspert baholash hamda ish joyiga transfer monitoringi asosida mexanizmning empirik verifikatsiyasi amalga oshirilishi lozim.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqotda "maktab direktorining media kompetentligi" tushunchasi maktab faoliyatiga oid axborotni izlash, saralash, tekshirish va tahlil qilish; media xabarlarining maqsadi va ta'sir mexanizmlarini anglash; rasmiy raqamli kommunikatsiyani tashkil etish; maktab imiji va raqamli reputatsiyasini boshqarish; media krizislarni muvofiqlashtirish; shaxsiy ma'lumotlar, mualliflik huquqi va kiberxavfsizlik talablariga rioya qilish; raqamli hamda sun'iy intellekt vositalari yordamida mas'uliyatli media mahsulot yaratish qobiliyatini birlashtiruvchi integrativ kasbiy kompetensiya sifatida ta'riflandi.

Tashkiliy-boshqaruv mexanizmi deganda belgilangan maqsadga erishish uchun malaka oshirish subyektlari, boshqaruv funksiyalari, mazmun, metodlar, resurslar, monitoring va qayta aloqa vositalarining tartiblangan o'zaro ta'siri tushuniladi. Mazkur mexanizm "diagnostika – rejalashtirish – tashkil etish – faoliyat – monitoring – refleksiya – korreksiya – ish joyiga transfer" sikliga asoslanadi (1-rasm).



1-rasm: Media kompetentlikni rivojlantirishning boshqaruv sikli



Mexanizmning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat: ilmiylik va dalillarga tayanganlik; boshqaruv vazifalariga kontekstual moslik; tinglovchining tajribasiga tayanish; faol va mahsuldor o'rganish; modullilik va variativlik; xavfsizlik hamda media etikasi; ochiqlik va refleksiya; uzluksizlik; individual va jamoaviy rivojlanish uyg'unligi; natijaning ish joyiga ko'chirilishini ta'minlash.

Mexanizm subyektlariga malaka oshirish tashkiloti rahbariyati, kurs koordinatori, trener, tutor yoki mentor, AKT va axborot xavfsizligi mutaxassisi, tinglovchi maktab direktori hamda uning ish joyidagi pedagogik jamoa kiradi. Boshqaruv funksiyalari diagnostika qilish, maqsadni belgilash, rejalashtirish, tashkil etish, motivatsiya, muvofiqlashtirish, monitoring, baholash, tahlil va korreksiyadan iborat.

Tashkiliy-mazmuniy komponent doirasida tadqiqot uchun ishlab chiqilgan maxsus kurs oltita o'zaro bog'liq modulni qamrab oladi:

- 1) media savodxonlik asoslari;
- 2) axborotni tahlil qilish va baholash;
- 3) ijtimoiy tarmoqlarda professional faoliyat hamda maktab imijini shakllantirish;
- 4) kiberxavfsizlik va shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish;
- 5) media vositalari va sun'iy intellektdan foydalanish;
- 6) maktab media strategiyasi va yakuniy loyiha.

Modullar ketma-ketligi "tushunish – tekshirish – kommunikatsiya – himoya – yaratish – boshqaruvga tatbiq etish" mantiqiga asoslanadi (1-jadval).

1-jadval: Media kompetentlikni rivojlantirish tashkiliy-boshqaruv mexanizmining komponentlari

Komponent	Boshqaruv vazifasi	Asosiy vositalar	Kutiladigan oraliq natija
Diagnostik-tahliliy	Boshlang'ich holat va ehtiyojlarni aniqlash	Kirish testi, anketa, o'zini o'zi baholash, maktab media auditi, vaziyatli topshiriq	Individual va guruh ehtiyojlari xaritasi
Maqsadli-prognostik	Kutiladigan kompetensiyalar va natijalarni belgilash	Kompetensiya profili, individual rivojlanish maqsadi, natija indikatorlari	Aniq maqsad va shaxsiy rivojlanish trayektoriyasi
Tashkiliy-mazmuniy	Modullar, resurslar va o'quv jarayonini tashkil etish	O'quv dasturi, modul xaritasi, trenerlar jamoasi, raqamli platforma, metodik paket	Tizimli va variativ ta'lim muhiti
Faoliyatli-texnologik	Bilimni real boshqaruv faoliyatiga aylantirish	Keys, faktcheking, media audit, simulyatsiya, loyiha, portfel, hamkorlikdagi topshiriq	Amaliy media mahsulot va boshqaruv ko'nikmalari
Monitoring-baholash	Jarayon va natijani dalillar asosida baholash	Test, rubrika, ekspert baholash, portfel, post-kurs monitoringi	Kompetensiya dinamikasi va transfer dalillari
Korreksion-refleksiv	Kamchiliklarni bartaraf etish va rivojlanishni davom ettirish	Refleksiya, individual tavsiya, mentorlik, amaliy harakat rejasi, hamjamiyat	Barqaror kasbiy rivojlanish va institutsional o'zgarish

Faoliyatli-texnologik komponentda ma'ruza axborot berishning yagona shakli bo'lib qolmaydi. Trener rahbarlarning real tajribasiga yaqin vaziyatlarni modellashtiradi:

- noma'lum manbadan kelgan xabarni SIFT algoritmi asosida tekshirish ^[16];
- axborotni dolzarblik, moslik, mualliflik, aniqlik va maqsad mezonlari orqali baholash;
- fakt va fikrni ajratish;
- deepfake belgilari bo'yicha materialni tahlil qilish;
- ota-onalar noroziligiga rasmiy javob yozish;
- maktabning bir haftalik media rejasini ishlab chiqish;
- shaxsiy ma'lumotlarni e'lon qilish xavfini baholash;
- sun'iy intellekt yaratgan matndagi faktik, etik va uslubiy xatolarni aniqlash.

Har bir topshiriq boshqaruv qarori yoki tayyor media mahsulot bilan yakunlanadi.



Mexanizmni amalga oshirish algoritmi sakkiz bosqichdan iborat:

Birinchi bosqichda boshlang'ich diagnostika va media auditi o'tkaziladi.

Ikkinchi bosqichda tinglovchining ehtiyojlari asosida individual maqsad belgilanadi.

Uchinchi bosqichda modullar va amaliy vazifalarning variativ marshruti tuziladi.

To'rtinchi bosqichda nazariy va amaliy o'qitish tashkil etiladi.

Beshinchi bosqichda tinglovchi o'z maktabi uchun media strategiya, kontent reja, krizis algoritmi va xavfsizlik chek-listini ishlab chiqadi.

Oltinchi bosqichda portfel, test, keys va loyiha rubrikalari asosida yakuniy baholash amalga oshiriladi.

Yettinchi bosqichda refleksiya va individual korreksiya rejasi tuziladi.

Sakkizinchi bosqichda kursdan keyingi mentorlik va ish joyiga transfer monitoringi yo'lga qo'yiladi.

Monitoring-baholash komponenti faqat yakuniy test natijasini emas, o'zlashtirilgan bilimning maktab boshqaruviga ko'chirilishini ham qamrab oladi. Bu yondashuv Guskey modelidagi ishtirokchi reaksiyasi, o'rganish natijasi, tashkilot qo'llab-quvvatlashi, yangi bilimni qo'llash va yakuniy ta'sir darajalari bilan uyg'unlashadi ^[12]. Maktab direktori uchun yakuniy natija "faktcheking ta'rifini bilish" emas, balki tekshirilmagan xabar tarqalgan vaziyatda manbani tekshirish, dalillarni yig'ish, rasmiy bayonot berish va reputatsion xavfni kamaytirish bo'yicha izchil harakat qila olishdir (2-jadval).

2-jadval: **Maktab direktori media kompetentligini baholash mezonlari va indikatorlari**

Mezon	Asosiy indikatorlar	Baholash dalillari
Motivatsion-qadriyatli	Ochiqlik, mas'uliyat, axborot etikasi va uzluksiz rivojlanishga ijobiy munosabat	Anketa, refleksiya, individual maqsad
Kognitiv	Media, dezinformatsiya, raqamli reputatsiya, kiberxavf va AI tushunchalarini bilish	Test, og'zaki izoh, tushuncha xaritasi
Axborot-tahliliy	Manbani tekshirish, fakt va fikrni ajratish, dalillarni solishtirish, manipulyatsiyani aniqlash	SIFT/CRAAP tahlili, faktcheking topshirig'i
Kommunikativ-boshqaruv	Auditoriyaga mos rasmiy xabar, ota-onalar bilan muloqot, krizis kommunikatsiyasi	Rasmiy bayonot, kommunikatsiya rejasi, simulyatsiya
Media-ijodiy va texnologik	Sifatli post, infografika, media reja, AI uchun aniq prompt va natijani tahrirlash	Media portfel, loyiha, ekspert rubrikasi
Xavfsizlik-etik	Shaxsiy ma'lumotlar, mualliflik huquqi, 2FA, parol va xavfsiz kontent qoidalariga amal qilish	Kibergigiyena auditi, xavfsizlik chek-listi
Refleksiv-transfer	O'z faoliyatini tahlil qilish, kamchiliklarni aniqlash va maktab amaliyotiga tatbiq etish	Harakat rejasi, post-kurs hisobot, mentor kuzatuv

Har bir mezon bo'yicha uch daraja tavsiya etiladi. Boshlang'ich darajada tinglovchi tushunchalarni qisman biladi, biroq vaziyatda mustaqil qo'llashda qiynaladi. Funktsional darajada u standart vazifalarni algoritm va tayanch vositalar yordamida to'g'ri bajaradi. Strategik darajada esa murakkab media vaziyatlarni mustaqil tahlil qiladi, jamoa ishini muvofiqlashtiradi, maktab siyosatini ishlab chiqadi va natijalarni monitoring qiladi. Darajalar faqat o'zini o'zi baholashga emas, kuzatiladigan mahsulot va harakat dalillariga asoslanishi kerak.

Nazariy tahlil va modellash natijasida *birinchi navbatda* maktab direktorining media kompetentligi umumiy raqamli savodxonlikdan farqlanuvchi, boshqaruvga yo'naltirilgan integrativ kompetensiya sifatida aniqlashtirildi. Uning tarkibiga axborot-tahliliy, kommunikativ-boshqaruv, media-ijodiy, xavfsizlik-etik va refleksiv-transfer komponentlari kiritildi. Bu ta'rif media kompetentlikni faqat texnologik vositalardan foydalanish yoki axborotni iste'mol qilish bilan cheklamasdan, maktab manfaatdor tomonlari bilan munosabatlarni va reputatsion natijalarni boshqarishga bog'laydi.

Ikkinchi natija sifatida media kompetentlikni rivojlantirishning oltita komponentli tashkiliy-boshqaruv mexanizmi ishlab chiqildi. Mexanizm malaka oshirish jarayonining odatiy "kursni tashkil etish – mashg'ulot o'tkazish – sertifikat berish" ketma-ketligini kengaytirib, boshlang'ich diagnostika, individual maqsad, amaliy mahsulot, tashkilot qo'llab-quvvatlashi, ish joyiga transfer va post-kurs monitoringini bir tizimga kiritadi. Ushbu natija Desimone ta'kidlagan faol o'rganish, izchillik va yetarli davomiylik talablariga mos keladi ^[11], shu bilan birga ularni maktab rahbarlarining media boshqaruv vazifalariga moslashtiradi.



Uchinchi natija maxsus kurs modullarining boshqaruv sikli bilan uyg'unlashtirilganidadir. UNESCO MIL modeli media va axborot savodxonligini keng kompetensiyalar tizimi sifatida taqdim etadi ^[6], DigCompEdu esa professional raqamli faoliyat uchun umumiy tuzilma beradi ^[8]. Taklif etilayotgan mexanizm ushbu xalqaro ramkalarni maktab direktori faoliyatiga kontekstual moslashtirib, maktab imiji, rasmiy sahifa, ota-onalar bilan kommunikatsiya, media monitoring, krizis bayonoti va raqamli reputatsiyani alohida amaliy natijalar sifatida belgilaydi. Shu ma'noda mexanizm xalqaro modellarni takrorlamaydi, balki ularni ta'lim muassasasi boshqaruvi darajasida funksional integratsiyalaydi.

To'rtinchi natija baholashning test markazli yondashuvdan faoliyat dalillariga asoslangan modelga o'tkazilishidir. Tinglovchining bilimini test orqali aniqlash zarur, biroq yetarli emas. Portfel, faktcheking protokoli, rasmiy bayonot, kontent reja, xavfsizlik auditi va yakuniy media strategiya uning kompetensiyasini to'liqroq namoyon etadi. Bu Guskeyning kasbiy rivojlanish natijasini ishtirokchi reaksiyasidan boshlab amaliy qo'llash va tashkiliy ta'sirgacha baholash haqidagi qarashlariga mos keladi ^[12].

Beshinchi natija kursdan keyingi metodik qo'llab-quvvatlashning mexanizmga mustaqil blok sifatida kiritilishidir. Bir martalik kursda shakllangan ko'nikma rahbar ish joyida vaqt, vakolat, texnik resurs yoki jamoa qo'llab-quvvatlashi mavjud bo'lmasa, barqaror amaliyotga aylanmasligi mumkin. OECD maktab liderligini rivojlantirish bo'yicha tavsiyalarida ham rahbarlarni tayyorlash uzluksiz, tizimli va amaliy yordam bilan bog'langan bo'lishi lozimligi ta'kidlanadi ^[9]. Shuning uchun mentorlik, professional hamjamiyat, qisqa maslahatlar va uch oylik transfer monitoringi mexanizmning zarur sharti sifatida qaraldi.

Taklif etilayotgan mexanizmning kuchli tomoni – uning kompleksligi va maktab boshqaruvining real vazifalariga yo'naltirilganligidir. Shu bilan birga, haddan tashqari ko'p komponent va vositalarni bir kurs doirasida joriy etish tashkiliy yukni oshirishi mumkin. Shu sababli mexanizm modulli va variativ bo'lishi, boshlang'ich diagnostika natijasiga ko'ra ayrim tinglovchilar uchun faktcheking, boshqalar uchun krizis kommunikatsiyasi yoki kiberxavfsizlik yo'nalishi chuqurlashtirilishi lozim. Trenerlarning media, boshqaruv va andragogik kompetensiyasi yetarli bo'lmasa, mexanizm mazmunan to'liq bo'lsa-da, amalda formal jarayonga aylanish xavfi mavjud.

Sun'iy intellekt vositalari mexanizmga samaradorlikni oshiruvchi yordamchi resurs sifatida kiritildi. UNESCO tavsiyalariga ko'ra, generativ AI ta'limda inson markazli yondashuv, ma'lumotlar maxfiyligi, etik foydalanish va natijalarni verifikatsiya qilish talablari bilan qo'llanishi kerak ^[7]. Shu bois rahbarning AI kompetentligi faqat prompt yozish bilan emas, balki maxfiy ma'lumotni platformaga kiritmaslik, mavjud bo'lmagan faktlarni aniqlash, mualliflik va tarafdashlik xavflarini baholash, tayyor matnni rasmiy uslub va maktab kontekstiga moslashtirish qobiliyati bilan o'lchanadi.

Umuman, nazariy muhokama taklif etilgan mexanizm media kompetentlik, raqamli liderlik, kattalar ta'limi va kasbiy rivojlanishni baholash haqidagi konsepsiyalar o'rtasida metodologik ko'priklar yaratishini ko'rsatadi. Biroq mexanizmning samaradorligi haqidagi qat'iy xulosa faqat tajriba-sinov natijalaridan so'ng chiqarilishi mumkin. Empirik bosqichda kamida boshlang'ich va yakuniy diagnostika, ekspertlararo kelishuv, media mahsulotlar rubrikasi, ish joyiga transfer ko'rsatkichlari va maktab jamoasining qayta aloqasi qo'llanishi maqsadga muvofiq.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, maktab direktorining media kompetentligi raqamli davrda qo'shimcha yoki ikkilamchi ko'nikma emas, balki ta'lim muassasasining ochiqqligi, axborot xavfsizligi, jamoatchilik ishonchi va boshqaruv qarorlarining dalillarga asoslanganligini ta'minlovchi muhim kasbiy kompetensiyadir. Uni rivojlantirish uchun alohida mavzularni o'qitishning o'zi yetarli bo'lmay, malaka oshirish jarayonining barcha boshqaruv funksiyalarini yagona tizimga birlashtirish zarur.

Taklif etilgan tashkiliy-boshqaruv mexanizmi diagnostika, maqsadni belgilash, modulli mazmun, real faoliyatga asoslangan metodlar, monitoring, refleksiya, korreksiya va post-kurs qo'llab-quvvatlashni o'zaro bog'laydi. Mazkur mexanizmning asosiy farqi media savodxonlikni shaxsiy axborot ko'nikmasi darajasidan maktabning rasmiy kommunikatsiyasi, raqamli reputatsiyasi, xavfsizligi va strategik rivojlanishini boshqarish darajasiga olib chiqishidadir.

Nazariy tadqiqot natijalari mexanizmni maktab direktorlarini tayyorlash va malakasini oshirish dasturlarida qo'llash uchun ilmiy-metodik asos yaratadi. Shu bilan birga, uning natijadorligi tajriba-sinov asosida tekshirishi, baholash vositalarining ishonchligi aniqlanishi va turli hudud hamda maktab sharoitlarida qo'llash imkoniyati qiyosiy o'rganilishi kerak. Kelgusi tadqiqotlar media kompetentlikning rahbarlik qarorlari sifati, maktabning raqamli reputatsiyasi, pedagoglar media madaniyati va ota-onalar ishonchiga ta'sirini empirik baholashga yo'naltirilishi maqsadga muvofiq.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. O'RQ-637-son¹, 2020-yil 23-sentabr. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi: LexUZ.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022–2026-yillarda maktab ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi PF-134-son² Farmoni. 2022-yil 11-may. LexUZ.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-son³ Farmoni. 2020-yil 5-oktabr. LexUZ.
4. O'zbekiston Respublikasining "Kiberxavfsizlik to'g'risida"gi Qonuni. O'RQ-764-son⁴, 2022-yil 15-aprel. LexUZ.
5. O'zbekiston Respublikasining "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonuni. O'RQ-547-son⁵, 2019-yil 2-iyul (keyingi o'zgartirish va qo'shimchalar bilan). LexUZ.
6. Grizzle A., Wilson C., Tuazon R. et al. Media and Information Literate Citizens: Think Critically, Click Wisely! Media and Information Literacy Curriculum for Educators and Learners. 2nd ed. Paris: UNESCO, 2021. 403 p. ISBN 978-92-3-100448-3.
7. Miao F., Holmes W. Guidance for Generative AI in Education and Research. Paris: UNESCO, 2023. 44 p. ISBN 978-92-3-100612-8.
8. Redecker C. European Framework for the Digital Competence of Educators: DigCompEdu / Y. Punie (ed.). Luxembourg: Publications Office of the European Union, 2017. DOI: 10.2760/159770.
9. Pont B., Nusche D., Moorman H. Improving School Leadership. Volume 1: Policy and Practice. Paris: OECD Publishing, 2008. DOI: 10.1787/9789264044715-en.
10. Knowles M. S., Holton E. F. III, Swanson R. A. The Adult Learner: The Definitive Classic in Adult Education and Human Resource Development. 8th ed. London: Routledge, 2015.
11. Desimone L. M. Improving Impact Studies of Teachers' Professional Development: Toward Better Conceptualizations and Measures // Educational Researcher. 2009. Vol. 38, No. 3. P. 181–199. DOI: 10.3102/0013189X08331140.
12. Guskey T. R. Does It Make a Difference? Evaluating Professional Development // Educational Leadership. 2002. Vol. 59, No. 6. P. 45–51.
13. Potter W. J. Media Literacy. 10th ed. Thousand Oaks, CA: SAGE Publications, 2021. 504 p.
14. Fedorov A. Media Literacy Education. Moscow: Information for All, 2015.
15. McLuhan M. Understanding Media: The Extensions of Man. New York: McGraw-Hill, 1964.
16. Caulfield M. Web Literacy for Student Fact-Checkers. 2017. Open textbook.
17. Sheninger E. Digital Leadership: Changing Paradigms for Changing Times. 2nd ed. Thousand Oaks, CA: Corwin, 2019.
18. Berkovich I., Hassan T. Principals' Digital Instructional Leadership During the Pandemic: Impact on Teachers' Intrinsic Motivation and Students' Learning // Educational Management Administration & Leadership. 2024. Vol. 52, No. 4. P. 934–954. DOI: 10.1177/17411432221113411.

1 <https://lex.uz/docs/-5013007>

2 <https://lex.uz/docs/-6008663>

3 <https://lex.uz/docs/-6008663>

4 <https://lex.uz/uz/docs/-5960604>

5 <https://lex.uz/docs/-4396419>

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №8(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.